

MAKTAB DARSLARIDA GERBARIYDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI NATIJALARI

Jumayev No‘monjon Odil o‘g‘li

Nomonjonjumayev65@gmail.com

Urgut tuman 89-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Anotatsiya: *Ko‘rgazmalilik asosida tashkil etiladigan botanika darslari o‘quvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishi, bilim, ko‘nikma va malakaning yuqori samaradorlik asosida hosil bo‘lishi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz hududida tuban va yuksak o‘simliklarning 11 000 turi o‘sadi. Shulardan 4 500 tasini yuksak o‘simliklar tashkil etadi. Shuncha o‘simlik turining barchasini bir viloyat yoki tuman hududida uchratish anchayin mushkul ish ekanligini hisobga olsak, shu bilan birga, o‘simliklarning mavsumiy bioritmga ega ekanligini hisobga olgan holda botanika darslarida gerbariy va quritilgan o‘simliklardan foydalanish anchayin qulay ekanligi va yoshlarimizni bu fanga va o‘simliklar dunyosiga qiziqishlari oshirishimiz mumkin*

Kalit so‘zlar: *O‘quvchi, gerbariy, o‘simlik, bilim, dars*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida institutning noyob ilmiy obyekti – “Markaziy gerbariy”ni milliy ahamiyatga ega gerbariy deb tan olish va unga “O‘zbekiston milliy gerbariysi” nomini berish lozimligi belgilab qo‘yildi. Bu bejiz emas, albatta. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida botanika darslarida, ayniqsa, o‘simliklarning vegetativ organlari va o‘simlik oilalariga bag‘ishlangan mavzularda gerbariydan foydalanish ancha samarali hisoblanadi. Mavzuni mustahkamlash chog‘ida Venn diagrammasidan foydalangan holda o‘simlik turlarini o‘zaro taqqoslash jarayonida gerbariydan foydalanish o‘quvchilarni abstrakt fikrlash va taxminiy qaror qabul qilishdan ko‘ra aniq, ma’lumotlarga asoslangan holda ish olib borishlarini ta’minlaydi. Shunday ekan, avvalo o‘quvchilarni gerbariy tayyorlash, uni saqlash va ishlatish tartib qoidalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib gerbariydan foydalainsh, terish, saqlash bo‘yicha ko‘plab adabiyotlar va amaliy ishlar majmuyi O‘zRFA qoshidagi Botanika instituti olimlari va viloyatlarda joylashgan oliy ta’lim muassasalari ishchi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Akademik Komiljon Tojiboyev gerbariylarni raqamli formatga o‘tkazish ishlari ketayotgani xususida ma’lumot berib o‘tdilar. «Hozirda gerbariylarni raqamli formatga o‘tkazish ishlari ketmoqda. Har bitta namuna skanerlanib raqamli formatga o‘tkaziladi. Undan keyin uning terilgan nuqtalari Google‘dan aniqlanadi. Nuqtalar qo‘yilgandan keyin, aytaylik, tabiatda bo‘layotgan o‘zgarish qay darajada ketyapti, flora o‘simlik turlari o‘zgarishi, yo‘qolishi, kelib qolishi hamda ko‘payishini yillar davomida ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Gerbariyini boyitish uchun har yili bir yarim ming donadan uch mingtagacha namunalar olib kelinadi», deydi.

Maktablarda ham o‘quvchilar uchun ko‘rgazmali material sifatida foydalanish uchun gerbariy tarqatilgan lekin vat o‘tishi bilan bu ko‘rgazmalar saqlanish sharoitlari to‘g‘ri tashkil etilmagani uchun yaroqsiz holga kelib qolganini ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilar uchun gerbariydan foydalanishni

o‘rgatish bilan ularga xom ashyo bazasidan oqilona foydalanish yo‘llarini o‘rgatish saqlanib qolingan noyob holdagi o‘simlik areallarini saqlash v kengaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqib ishlab chiqarishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tumanlardagi iqtidorli maktablarga viloyat oliy ta‘lim muassasasi olimlari va shu sofada ish yuritadigan fakultet qoshidagi kafedralarini birlashtirib, maktablarni kerakli gerbariy namunalari bilan taminlanishi zarur. Shundagina o‘quvchi o‘simlikka yoshligidan qiziqadi va biz tabiatni asrab qolish uchun kerakli kadrlar masalasini oldindan yecha olamiz, bilimli va asrab qoloqchi bo‘lgan o‘simligimiz uchun kerakli malumotlarni mukammal bilgan tabiat egalarini tarbiyalashimiz mumkin



Bugungi kunda noyob ilmiy obyektidagi maxsus raqamlangan shkaflarda saqlanayotgan o‘simlik gerbariyalarining barchasi maxsus parametrlar asosida ma‘lumotlar elektron bazasiga kiritilgan. Raqamli texnologiyadan fodalangan holda maktablarda o‘quvchilarga gerbariyalar haqda tushuntirish ishlarini olib boorish ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Shunday ekan yosh avlodini bu sohaga olib kirish uchun o‘qituvchilarning sayi harakati zarur omil.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Milliy gerbariyamizning kelajagi, uni zamon fani, talablari darajasiga keltirish va yanada kengaytirish borasida, institut ilmiy xodimlari tomonidan ulkan, ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy gerbariyada yangi bo‘limlar tashkil etish rejalashtirilmoqda. O‘zbekiston Milliy gerbariyasi mamlakatimiz ilm-fanining noyob oltin xazinasini hisoblanadi. Chunki bu nodir varaqlardagi go‘zallik, ming yillardan so‘zlaguvchi mangulikka daxldor tabiatning bebaho olamidir.